

**TALABALARGA INDIVIDUAL TA'LIM YONDASHUVLARI ASOSIDA  
INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Mutabar Sayfullayevna Meylieva**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Pedagogika fakulteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'limga tashkil etishda individual yondashuv asosida shaxsni intellektual qobiliyatlarini rivojlanishiga alohida e'tibor berilgan. Bu esa talabalarda psixologik xususiyatlarni shakllanishiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Ushbu maqola talabalarni individual-psixologik yondashuv asosida intellektual rivojlanish to'g'risida.

**Kalit so'zlar:** *ta'limga tashkil etish, individual yondashuv, intellektual rivojlanish, talaba, psixologik xususiyat.*

**Аннотация:** В организации образования в развитых странах мира особое внимание уделяется развитию интеллектуальных способностей человека на основе индивидуального подхода. Это напрямую связано с формированием психологических особенностей студентов. Данная статья посвящена интеллектуальному развитию студентов на основе индивидуально-психологического подхода.

**Ключевые слова:** организация обучения, индивидуальный подход, интеллектуальное развитие, учащийся, психологические особенности.

**Abstract:** In the organization of education in developed countries of the world, special attention is paid to the development of human intellectual abilities based on an individual approach. This is directly related to the formation of psychological characteristics of students. This article is devoted to the intellectual development of students based on an individual psychological approach.

**Key words:** organization of training, individual approach, intellectual development, student, psychological characteristics.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, fanlarni chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarning talabalari uchun individual o'quv rejalarini tuzish tajribasi keng yoyilmoqda. Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflar uchun individual o'quv rejalarini tuzish, amaliyotda qo'llash tajribasi rivojlangan davlatlarda keng yoyilgan bo'lib, individual o'quv rejalarini yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan. Shuning uchun ham bu sohadagi tajribalarni o'rganish muhim. Talabalarda o'zi yashayotgan jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo'lishi yo'lida kurashish, turli millat va elatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro inoqlikning qaror topishiga o'z ulushini qo'shishga

intilish ko'nikmalarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o'z qadr-qimmatini anglab yetishlarini ta'minlaydi.

Talabani har tomonlama rivojlantirish muammosining yechimi bugungi kunda jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun hozirgi ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan ayrim an'analardan voz kechish zaruriyati tug'ilmoqda. Jumladan, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan an'anaviy ta'lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta'minlagan holda talabalarni intellektual rivojlantirish tizimini belgilab berish muhim masaladir. Talabalarda mavjud bo'lgan bilimlar paradigmasi hamda ular taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari orasida aloqadorlikni ta'minlagan holda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi hamda ularning o'quv jarayonidaga taraqqiyotlari orasida dinamik aloqadorlikni ta'minlash lozim. Talabaning intellektual jihatdan erkin rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan insonning haq-huquqlari haqidagi qonun-qoidalarga amal qilib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi bo'lishga undash orqali amalga oshiriladi.

Talabalarga individual ta'lim yondashuvlari asosida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish shuning uchun ham zarurki, bu jarayonda o'quv vaziyati barqaror rivojlanadi va talabalarga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati vujudga keladi. Birinchidan, mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga aksariyat hollarda e'tibor qaratmaydilar. Ikkinchidan, ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlar vujudga keldi. Talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. Ular: talabalarni mustaqil va tanqidiy fikrashga o'rgatish, ko'proq mustaqil bilim olishlarini ta'minlash, ularni jismoniy jihatdan rivojlantirish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini egallahsga undash, har bir darsda talabalarni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini ularga taqdim etish kabilidan iborat. Bular ichida talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan jihatlar ularni mustaqil va tanqidiy fikrash hamda mustaqil bilim olishga yo'llashdir. Talabalarni intellektual intellektual qibiliyatlarini rivojlantirishning dastlabki davrida pedagogik vositalar tizimi ularni o'quv jarayonida intellektual faoliyatga undashi lozim. Ikkinci davrida esa, o'qituvchining asosiy e'tibori talabalarni intelektual rivojlantirishning mazmunli-jarayonli yo'nalishiga ko'chiriladi. Bu jarayonda intellektual vazifalarni yechishda talabalarning dastlabki o'ziga xosliklari va iqtidorlari yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Uchinchi davrda, pedagogik vositalar tizimi talabalarda intellektual va hissiy-ixtiyoriy faoliyat ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarining validligi ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdagi asosiy o'lchovdir.

Talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi asosiy belgilar sifatida ular intellektual faoliyatining ayrim ko'rinishlari tanlab olinishi kerak. Shu bilan bir

qatorda, talabalar o‘quv faoliyatining o‘ziga xos mayllariga ham asoslanish lozim. Chunonchi: talabalarning o‘quv axborotlarini qabul qilish hajmi va tezligi; o‘quv maqsadlariga erishish davomida talabaning mustaqillik darajasi; yangi o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga Talabalarning tayyorligi; o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan talabalarning qiziqishlari kabilar. Bu o‘lchovlar ta’lim jarayonida talabalarning intellektual ko‘nikmalari qay darajada rivojlanganligini ham ko‘rsatadi. Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanganlik darajalarini aniqlash uchun, ularning aqliy faoliyatini muntazam nazorat qilish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularni turli guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Chunki talabalarni intellektual rivojlanishlarini samarali ta’minalash uchun ularning qaysi guruhga mansubligini aniqlash talab etiladi. Talabalarni bunday guruhlash ularni bir guruhdan ikkinchisiga o‘tish uchun harakatlanishga rag‘batlantiradi. Masalan, o‘rtacha o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan talaba yaxshiroq o‘zlashtirishga intilib rivojlanishga harakat qiladi. Bunda o‘qituvchi bilan talabalar orasidagi subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishlarini ta’minalash uchun, birinchi navbatda o‘qituvchi ularga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashishi kerak. Xuddi shunday insonparvarona munosabat natijasida quyidagilarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi:

Talabalarning kreativ fikrlashlari vaziyatida vujudga kelgan ziddiyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish;

intellektual-mahsuldor o‘quv vaziyati bevosita faoliyatli yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi va unda Talabalarning intellektual taraqqiyoti o‘quv faoliyati yordamida amalga oshiriladi, shuningdek bu jarayonda Talabaning intellektual qobiliyatlarini bilan o‘quv jarayoni orasidagi qarama-qarshilik bartaraf etiladi;

bashoratga asoslangan o‘quv vaziyatida amalga oshirilgan o‘quv faoliyati orqali Talabalarning intellektual qobiliyatlarini taraqqiyotini ta’minalash imkoniyati vujudga keladi. Bu esa, Talabalarda o‘z intellektual faoliyatlarini natijalarini baholash ko‘nikmasining shakllantirish imkonini beradi, o‘quv-biluv jarayoni oldiga yangi maqsadlar qo‘yishga ko‘maklashadi.

O‘qituvchi talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlanishini ta’minalashga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, unga qo‘yiladigan talablar va mazkur o‘quv-biluv jarayoni samaradorligini ta’minalashga xizmat qiladigan tabiiy omillarni ham o‘zlashtirishlari zarur. O‘qituvchilar talabalarga taqdim etiladigan o‘quv materiallarining mazmun-mohiyati, qurilishi, ularni tanlash manbalarini ham bilishlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, o‘qituvchilar o‘quv materialari hajmi va mazmunini kengaytirishlari, o‘quv jarayonini loyihalashtirishlari, bunda o‘quv vaqtini imkoniyatlarini inobatga olishlari muhimdir. O‘quv jarayoni loyihalarini mujassamlashtirish natijasida uning yaxlit tavfsifi vujudga keladi.

O‘qituvchilar talabalarni intellektual rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilashlari uchun, uning ahamiyati, maqsadga erishish yo‘llari, duch kelinadigan qiyinchiliklarni aniq bilishlari va bu sohada yutuqlarga erishish uchun muntazam nazoratni amalgaloshirishlari lozim. Talabalarni intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik vositalar, ularning aqliy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, talabalarni individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirish bugungi kunda ta’lim jarayonining ustuvor maqsadlaridan biriga aylangan. Ushbu jarayon taqdim etilgan nazariy bilimlar, ilmiy tushunchalar va axborotlarning talabalar tomonidan sifatli hamda samarali o‘zlashtirilishi, o‘quv jarayonining yaxlit maqsadga yo‘naltirilgan didaktik hodisa sifatida namoyon bo‘lishi, talabalar intellektual faoliyatlarining ongli tarzda shakllanishi ular taraqqiyotining barqaror tarzda amalgaloshirilishiga imkon beradi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Almetov N.SH. O‘quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish //O‘qit.uchun.qo’ll. – Chimkent, Jan.KozMITI, 2013. – 90 b.
2. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta’limi. – 2004. - № 3. – B.24.
3. Baxranov Sh. Shaxs milliy o‘zligini anglash qonuniyatları. – Samarqand: Zarafshon, 2015. – 136 b.
4. Gappirov B.T. Talabalarda axloqiy o‘z-o‘zini anglashning o‘quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti: Psix.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2013. – 133 b.
4. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta’lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta’limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug‘allim həm yziksiz bilimlendirio’. 2022. –№3/3, – B. 39-43.
5. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / “Ta’lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.
6. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / “Ta’lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.